

LINGUISTIC FEATURES OF INTERACTIVE TV PROGRAMS

Yulduz Akmalovna ARTIKOVA

Doctor of Philology, Associate Professor
Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

INTERAKTIV TELEKO'RSATUVLARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Yulduz Akmalovna ARTIKOVA

Filologiya fanlari doktori, dotsent
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O'zbekiston

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ТЕЛЕПЕРЕДАЧ

Юлдуз Акмаловна АРТИКОВА

Доктор филологических наук, доцент
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Ortiqova Y.A. Interaktiv teleko'rsatuvlarning lingvistik xususiyatlari // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 2. — B. 211-228.

<https://doi.org/10.36078/1746686774>

Received: February 28, 2024

Accepted: April 17, 2025

Published: April 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Abstract. This article examines the issues of linguistic features in interactive TV shows. It is known that the speech is described in the form of a monologue and the form of a dialogue between two people. Since there is a combination of several genres in modern television journalism, it should be noted that both monologic and dialogic speeches are found in interactive television programs based on polylogical speech. Speech diversity serves to increase the effectiveness of interactive shows. The research analyzed the existence of a combination of several genres in modern television journalism, and the meeting of monologic and dialogic speeches in interactive television programs based on polylogical speech. While polylogical speech is shown in interactive TV programs, the TV presenter, as a moderator, acts as a linker of communication processes, a harmonizer of different forms of speech. At the same time, in research, the moderator's psychological preparation is needed to get rid of the dialects in everyday speech, to have the ability to automatically follow the standards of literary language in oral speech, to adjust the structure of grammatical sentences in oral speech to the standards of literary language. The need to have adaptive skills has been researched. The article describes the issues of using neurolinguistic programming on the air. Also, the issue of non-observance of the literary language on television is accepted as the current norm since the change of speech standards is accepted as a normal thing in everyday life. Research conclusions were made based on the results of the research, which revealed the linguistic relevance of interactive TV shows with the help of practical theoretical views and practical examples.

Keywords: speech; conversation; dialogue; journalism; genre; reportage; presenter.

Annotatsiya. Mazkur maqolada interaktiv teleko'rsatuvlardagi lingvistik xususiyatlar masalalari ko'rib chiqiladi. Ma'lumki, nutq monolog shaklda hamda ikki kishi o'rtasidagi suhbatdagi dialogli

nutq shaklida tavsiflanadi. Zamonaviy telejurnalistikada bir nechta janrlarning uyg'unligi mavjud ekan, polilogik nutqqa asoslangan interaktiv teleko'rsatuvlarda ham monologik, ham dialogik nutqlar uchrashini ta'kidlash kerak. Nutqiy xilma-xillik interaktiv ko'rsatuvlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Izlanishda zamonaviy telejurnalistikada bir nechta janrlarning uyg'unligi mavjudligi, polilogik nutqqa asoslangan interaktiv teleko'rsatuvlarda ham monologik, ham dialogik nutqlar uchlashi tahlil etilgan. Interaktiv teledasturlarda polilogik nutq namoyon bo'lar ekan, televizion boshlovchi moderator sifatida kommunikatsiya jarayonlarning o'zaro bog'lovchisi, turli nutq ko'rinishlarini uyg'unlashtiruvchisi vazifasini o'taydi. Shu bilan birga, maqolada moderatorning psixologik tayyorgarligiga kundalik so'zlashuv nutqidagi shevalardan xalos bo'lish, avtomatik tarzda og'zaki nutqda adabiy til me'yorlariga rioya qila olish qobiliyatiga ega bo'lish, og'zaki nutqdagi grammatik gap tuzilishini adabiy til me'yorlariga moslashtira olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozimligi hamda efirda neyrolingvistik dasturlashni qo'llash masalalari bayon etilgan. Shuningdek, kundalik hayotda nutqiy me'yorlarning o'zgarishi odatiy hol sifatida qabul qilinishi tufayli teleefirdagi adabiy tilga rioya etilmaslik hozirgi kun me'yori deb qabul qilinishi muammolariga masalasiga to'xtalib o'tilgan. Izlanishda interaktiv teleko'rsatuvlar lingvistik dolzarb ilmiy-nazariy qarashlar va amaliy misollar yordamida ochib berilgan, olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra ilmiy xulosalar qilindi.

Kalit so'zlar: nutq; suhbat; dialog; jurnalistika; janr; reportaj; boshlovchi.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы языковых особенностей в интерактивных телепередачах. Известно, что речь описывается в форме монолога и в форме диалога. Поскольку в современной тележурналистике наблюдается сочетание нескольких жанров, следует отметить, что в интерактивных телевизионных программах, основанных на полилогической речи, встречаются как монологическая, так и диалогическая речь. Речевое разнообразие способствует повышению эффективности интерактивных шоу. В ходе исследования проанализировано существование в сочетании нескольких жанров в современной тележурналистике, а также встречается как монологическая, так и диалогическая речь в интерактивных телевизионных программах, основанных на полилогической речи. При показе полилогической речи в интерактивных телепрограммах телеведущий выступает связующим звеном коммуникативных процессов, гармонизатором разных форм речи. При этом психологическая подготовка модератора, утверждается в исследовании, заключается в избавлении от диалектизмов в повседневной речи, в умении автоматически следовать нормам литературного языка, корректировать грамматическую структуру предложения в устной речи в сторону норм литературного языка. Исследована необходимость владения адаптивными навыками. В статье рассмотрены вопросы использования нейролингвистического программирования в эфире. Также анализируется вопрос несоблюдения литературного языка на телевидении, что принимается как действующая норма в связи с тем, что изменение речевых норм воспринимается как естественное явление в повседневной жизни. По результатам исследования были сделаны выводы, которые выявили языковую актуальность интерактивных телепередач с помощью теоретических взглядов и практических примеров.

Ключевые слова: речь; беседа; диалог; журналистика; жанр; репортаж; ведущий.

Kirish

Jahonda zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti, globallashtirish jarayonlarining chuqurlashuvi an'anaviy OAVni ommaviy kommunikatsiya vositalariga aylantirdi. Har bir individ global media makonida o'zaro muloqotga kirishmoqda, axborot esa kommunikativ shaklda tarqalmoqda. Cheksiz axborot almashinuvi jamiyatda so'z erkinligi, ochiqlik va shaffoflik uchun xizmat qilishi barobarida media nazariyasida bu jarayonning tahlil qilinishi va tavsiflanishiga ehtiyojni paydo qilmoqda. Axborot almashinuvi asosida paydo bo'ladigan o'zaro ta'sirlashish, ya'ni interaktivlik, telejurnalistika taraqqiyotini belgilovchi asosiy omilga aylanmoqda. Faol axborot ishlab chiqaruvchisi va jurnalistga hammuallif bo'lgan auditoriyaning erkin fikr bildirishi jamiyatning demokratlashuvi uchun xizmat qilmoqda. Bunday vaziyatda interaktiv telejurnalistikani rivojlantirish xalqaro amaliyotda muhim va dolzarb ekanligi ta'kidlanmoqda.

Axborot almashinuvi jarayonida auditoriya vakili bo'lgan har bir muxlis ijtimoiy munosabatlarga kirishadi, o'z so'zi, qarashlari, fuqarolik pozitsiyasini namoyon etadi. Darhaqiqat, media mutaxassis F. A. Mo'minov ta'kidlaganidek: "Auditoriya ijtimoiy munosabatlar subyekti va aloqa vositasidir, ya'ni jamoatchilik munosabatlarning tashuvchisi va subyekti hisoblanadi. Faqat auditoriya bo'lish orqaligina shaxs o'zining ijtimoiy xarakterini ko'rsatish imkoniga egadir. Bunda inson ijtimoiy aloqalar umumlashmasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birgalikda, auditoriya ommaviy axborot vositalariga ta'sir qilish obyekti bo'lib ham xizmat qiladi. Agar auditoriya bo'lmaganida ommaviy axborot vositalari ham bo'lmagan bo'lur edi" [Mo'minov 2019: 65].

Auditoriya bilan muloqot qilish jarayoni bevosita axborot tushunchasiga ham yangilanishlar olib kirdi. Axborot orqali jamiyatda auditoriyaning o'rnini, shaxs sifatida shakllanishi namoyon bo'ldi. Axborotga bergan ta'rifida media mutaxassis Xurshid Do'stmuhammad, jumladan, shunday deydi: "Axborot mavzusi orqali jamiyat haqida ham atroflicha xulosalar chiqarilishi mumkin. Chunki hech bir jamiyatni muloqotlar jarayonlarisiz tasavvur qilishning iloji yo'q. Har qanday jamiyat shaxslararo, shaxs va jamiyat o'rtasidagi muloqotlar muhitida mavjuddir. Shu ma'noda shaxs ijtimoiy ahamiyatga molik subyektdir. Bu subyektning ijtimoiy ahamiyati, avvalambor, uning o'zi a'zosi bo'lgan jamiyat haqidagi, bashariyat haqidagi ma'lumotlardan boxabarligi darajasi bilan belgilanadi" [Do'stmuhammad 2013: 25].

Dunyoda o'tgan asrning o'rtalaridan boshlab sotsiologiya, psixologiya sohalarida globallashtirish jarayonidagi o'zaro muloqot, o'zaro ta'sirlashish, auditoriyaning axborot tarqatish jarayonidagi faollashuvi keng tadqiq etilib, ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jonli efirdagi bevosita muloqotga asoslangan ko'rsatuvlar boshqa shakldagi loyihalarga nisbatan o'zining ommaviyligi, samaradorligi, katta hajmdagi auditoriyani jalb qilishi bilan interaktiv telejurnalistikaning taraqqiyotini belgilab berdi. Axborot davrida o'z qarashlari, fikrlari, nuqtayi nazarini erkin ifodalashga odatlangan auditoriya interaktiv teleko'rsatuvlarning faol ishtirokchisiga

aylandi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy jarayonlarning aks ettiruvchi interaktiv telejurnalistikada turli yoʻnalish, janrlarining uygʻunligi borasida tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyatga ega boʻlmoqda.

K. F. Ismailova interaktiv jarayonga quyidagicha taʼrif beradi: “Bugungi kunda interaktivlik zamonaviy radioefirni xarakterlovchi asosiy parametrlardan biridir” [Ismailova 2022: 84]. Shuningdek, multimedia jurnalistikasi boʻyicha izlanishda N. F. Muratova auditoriya bilan jurnalist oʻrtasidagi munosabatlarning oʻzgarishiga: “Multimedia jurnalistikasining interaktivlikka asoslanganligi jurnalist va foydalanuvchilar oʻrtasida anʼanaviy “subyekt — obyekt” emas, “subyekt — subyekt” konsepsiyasi asosida hamkorlikda ijod qilishga imkon berishi natijasida ikki tomonda ham media xulq-atvorining yangi qirralarini ochayotgani” [Muratova 2023: 11] deb munosabat bildiradi. Interaktiv jurnalistika negizida interaktivlik jarayoni mavjud ekan, bu tushunchaga taʼrif berish va kengroq tahlil qilishga ehtiyoj mavjud. Mutaxassislarning fikricha: “Interaksionizm atamasi ingliz tilidagi *interaction* soʻzidan olingan boʻlib, oʻzaro taʼsir qilish maʼnosini bildirib, ijtimoiy fanlarning bir nechta yoʻnalishlarini birlashtiruvchi metodologik yondashuvdir. Interaksionizm paradigmasi asoschisi AQSH pragmatizm oqimiga kiruvchi chikagolik olim J. G. Middir. Uning qarashlari Gerbert Blumer tomonidan simvolik interaksionizm nazariyasida yanada rivojlantirildi. Shuni alohida taʼkidlash kerakki, oʻtgan asrning boshlarida sotsiologiya fan yoʻnalishida simvolik interaksionizm yoʻnalishi keng tadqiq etilgan. Mutaxassislar bu jarayonni quyidagicha tavsiflaydilar: “Individlarning oʻzaro taʼsirlanishi natijasida odamlar bir-birlarining harakatlarini talqin qilishlari mumkin boʻlgan timsollarda aks etgan umumiy muvofiq tushunchalar shakllanadi” [Potapova 2016: 79].

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish sohasida olib borilayotgan keng miqyosdagi islohotlar tufayli xalq bilan muloqotga asoslangan interaktiv telekoʻrsatuvlar hajmi ortib bormoqda. Turli yoʻnalish, mavzu va janrlardagi muloqotga asoslangan teledasturlarda jurnalistlar qatori auditoriya vakillari ham ishtirok etib kelishmoqda. Efir mutasaddi rahbarlar va tomoshabinlarning oʻzaro muloqot platformasiga aylanib ulgurgan. “Davlat va nodavlat tashkilotlarining axborot manbalari yanada ortib, aholi bilan toʻgʻridan toʻgʻri muloqot qilish, odamlarni oʻylantirayotgan muammolarga tezkor munosabat bildirish, turli mavzular boʻyicha ochiq, xolis va tanqidiy fikr bilan chiqishda katta imkoniyatlar paydo boʻlmoqda. Axborot sohasida miqdor koʻrsatkichlarini sifat koʻrsatkichlariga aylantirish, milliy jurnalistikamiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish — oldimizda turgan dolzarb vazifadir. Oʻzbekiston media kompaniyalari ham jahon axborot maydonida munosib oʻrin egallab, global siyosiy-ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga intilmoqdalar” (<https://president.uz/uz/lists/view/5294>). Mamlakatimizda soʻnggi yillarda olib borilayotgan ochiqlik siyosati natijasida auditoriya bilan muloqotga asoslangan interaktiv telejurnalistikaning nazariy asoslari, taraqqiyot tendensiyalarini tadqiq etish muhim vazifaga aylanib, bu borada yuzaga kelayotgan dolzarb muammolarni ilmiy jihatdan tadqiq qilish zarurati kuchaymoqda.

Ma'lumki, nutq monolog shaklda hamda ikki kishi o'rtasidagi suhbatdagi dialogli nutq shaklida tavsiflanadi. An'anaviy jurnalistika janrlari bo'lgan reportaj, yangilik yoki hisobotlarda odatda boshlovchi yoki suxandonlar taqdim etgan material monolog tarzda tomoshabinlar tomonidan qabul qilinadi. Avvaldan yozib olingan bo'lsa-da, ikki kommunikant o'rtasida kechadigan suhbat janrini esa *dialogik nutqqa* kiritish mumkin. Dialogik nutqni intervyu, davra suhbatlari kabi janrlarda ham kuzatish mumkin. Mutaxassislar bir nechta kommunikant ishtirok etadigan interaktiv teleko'rsatuv nutqini *polilogli nutq* sifatida ta'riflashadi. "Zamonaviy teleekranda polilogli, ya'ni ikkitadan ortiq suhbatdosh ishtirok etadigan ko'rsatuvlar ham keng tarqalgan hodisa. Tashqi tomondan bunday nutqni tushunish qiyinroq tuyulsa-da, biroq polilog qatnashchilarining o'zlari uchun bu ancha qulay muloqot turidir" [Bakiyeva 2019: 115]. Zamonaviy telejurnalistikada bir nechta janrlarning uyg'unligi mavjud ekan, polilogik nutqqa asoslangan interaktiv teleko'rsatuvlarda ham monologik, ham dialogik nutqlar uchrashini ta'kidlash kerak. Nutqiy xilma-xillik interaktiv ko'rsatuvlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Asosiy qism

Individlarning fikri, qarashlarining bevosita ijtimoiy jarayonlarga ta'siri chuqur o'rganilgan. Fanda psixologiya, sotsiologiya, sotsial psixologiya yo'nalishlari keng tadqiq etilgan. Aynan jamiyatshunoslar tomonidan interaktivlik, ya'ni individlarning muloqot orqali bir-birlariga bevosita ta'sir qilishlari, jamoaga, jamiyatga o'z ta'sirini o'tkazishlari ilmiy tahlil etilgan. "Interaktivlikning diqqat markazida muloqot va o'zaro ta'sirlanishni nazarda tutadigan ijtimoiy interaksiya mavjuddir. Bu jarayon har bir individning o'zini tutishi va shaxs sifatida shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy jarayonlarda ziddiyatlar, hamkorliklar, shaxsning shakllanishi insonlararo o'zaro ta'sirlanishdan kelib chiqadi. Interaksionizmning davomchilari shaxslararo o'zaro ta'sirlanishdan jamiyat paydo bo'lganini e'tirof etishadi" [Mukazhanova: n.d.]. Interaktivlik negizida jamiyatdagi insonlarning axborot almashish, bo'layotgan voqea-hodisalarga nisbatan o'z qarashlarini ifoda etish hamda fikrlari orqali keng jamoatchilikka ta'sir qilish kabi faoliyatlari nazarda tutiladi. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, interaktiv jarayonlarda individlar faollashadi, fikr bildirish qobiliyatlari rivojlanadi, mushohada yuritish orqali shaxs sifatida shakllanishni boshlaydilar. OAV orqali auditoriyaga, auditoriya tomonidan keng jamoatchilikka yoki efirdagi dialogga ta'sir ko'rsatish jarayonida interaktivlik tizimi namoyon bo'ladi. Interaktivlikda paydo bo'ladigan o'zaro ta'sirlanish jarayonida turli kommunikatsiya subyektlar fikrini o'zida aks ettirgan axborot oqimi jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligi ommaviylashishiga o'z hissasini qo'shadi. "Texnikaning rivojlanishi natijasida matbuot, radio, tele- va internet jurnalistikaning barcha imkoniyatlarini jamlagan holda interaktiv jurnalistika auditoriya uchun yana bir tenglik tarzidagi qulaylik yaratdi. Bunda muxlis axborotni olish va tarqatish jarayonida bevosita jurnalist bilan barobar ishtirok etadi. Ana shunda chinakam interaktivlik jarayoni paydo bo'ladi. Ya'ni interaktiv jurnalistika yangi janr emas, balki yangi

jurnalistika ko‘rinishidir. Bunda an‘anaviy jurnalistikaning so‘z, tasvir, ovoz, tezkorlik va h.k. xususiyatlari jamlangan holda, axborot monolog tarzida emas, o‘zaro suhbat-dialog tarzida tayyorlanadi” [Ortiqova 2011: 11].

Interaktiv teledasturlarda nutq ko‘rinishlarining uyg‘unligi

Ikki va undan ortiq kommunikant ishtiroki bilan kechgani uchun interaktiv teleko‘rsatuvlarda polilogik nutq namoyon bo‘ladi. Bu ko‘rinishdagi kommunikatsiya real hayotga yaqinlashgani bilan ahamiyatli bo‘lib, asosan og‘zaki nutqda amalga oshiriladi. Efirdagi muloqotda muallif va mutaxassislar bilan birgalikda auditoriya vakillari, tomoshabinlar ham ishtirok etishlari muloqotning sodda, tushunarli, xalqchil tarzda olib borilishiga zamin hozirlaydi. Ko‘plab kommunikant qatnashadigan qaytariqli aloqa shaklidagi mulohaza bildirish imkoniyati mavjud bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlardagi suhbatlarda polilogli nutqning yozma shaklini ko‘rish mumkin. Mutaxassislar televideniyaedagi polilogik nutq namoyon bo‘luvchi interaktiv teleko‘rsatuvlarning janrlarini ham alohida ta‘riflashadi: “An‘anaviy monologik dasturlarni dialogizatsiyalash bilan bir paytning o‘zida elektron OAV ko‘rsatuvlarining yangi dialogik va polilogik shakllari rivojlanib bormoqda: tok-shou (u media dasturlarning katta doirasini belgilash uchun juda qulay bo‘lib qoldi, ularda interaktiv o‘yinlardan jiddiy, aktual muammolar muhokamasigacha o‘tkazilmoqda), mashhur kishilar bilan intervyu, teledebat va telediskussiya, savol-javobli tele- va radioo‘yinlar va b.” [Bakiyeva 2019: 108]. Demak, barcha yo‘nalish va mavzulardagi interaktiv teleko‘rsatuvlardagi kommunikatsiya jarayonlarini polilogik nutq mavjud loyihalar sifatida ta‘riflash mumkin.

Zamonaviy telejurnalistikada bir nechta janrlarning uyg‘unligi mavjud ekan, polilogik nutqqa asoslangan interaktiv teleko‘rsatuvlarda ham monologik, ham dialogik nutqlar uchrashini ta‘kidlash kerak. Ular ko‘rsatuv tarkibidagi lavhalar shaklida dasturdan o‘rin oladi. Loyiha jarayonida efirga beriladigan reportaj, blits-intervyu, suhbatlarda nutq almashinuvining uyg‘unligi namoyon bo‘ladi. Ko‘rsatuvning asosini tashkil etadigan ssenariy ham turli nutqiy o‘zgarishlarni o‘zida jamlaydi. Masalan, boshlovchining salomlashuvi hamda ko‘rsatuv mavzusini e‘lon qilinishi monologik nutqqa misol bo‘lsa, respondentlar bilan o‘zaro suhbat dialogni namoyon qilib, studiyada kechadigan bahs, munozara, debatlar jarayoni polilogik nutq sifatida ta‘riflanadi. Ya‘ni zamonaviy interaktiv telejurnalistika amaliyotida sof janrlar uchramas ekan, ularda barcha nutq ko‘rinishlarining uyg‘unligi mavjudligini kuzatish mumkin.

Interaktiv dasturlarda tomoshabinlarni ekran oldidan uzoqlashmaslikni ta‘minlash maqsadida turli janrdagi lavhalar beriladi. Bu dasturning ko‘rishlar sonini oshirishda, nutq ko‘rinishlarining almashinuvida o‘ziga xoslik bag‘ishlaydi. Ya‘ni nutqiy xilma-xillik teleko‘rsatuvlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Nutqiy almashinuvni ta‘minlash uchun radioda erkak va ayol boshlovchilar tandemida eshittirish olib borilishi kuzatiladi. Teledastur boshlovchiligini dialog shaklida tayyorlanishi uning qiziqarliligini oshirishi ma‘lum. Masalan, o‘zbek televideniyesida o‘ziga xos maktab bo‘lib shakllangan

“Assalom, O‘zbekiston!” telejurnalini doimo ayol va erkak boshlovchilar olib borishgan. Ko‘rsatuv suhbat, dialog shaklida tuzilgan. So‘nggi yillarda ma‘rifiy-ko‘ngilochar dasturlardagi bunday an‘ana yangiliklar blokida ham qo‘llanilmoqda. Odatda yangiliklar dasturi bitta boshlovchi tomonidan monologik shaklda olib borilsa-da, “Yoshlar” telekanlida efirga uzatiladigan “Yangi davr” dasturiga o‘ziga xoslik bag‘ishlash uchun erkak va ayol boshlovchilardan iborat dialogik tandemni kiritishgan. Ya‘ni mazkur loyiha uchun boshlovchilar ko‘rinishi, studiyaning dizayni kabi tomoshabinni o‘ziga jalb qilish usullari qatorida bir nechta kommunikantlarning o‘zaro suhbatini, ularning ovozlarning turlicha bo‘lishini ta‘minlaydigan boshlovchilar dialogi tashkil etildi.

Monologik nutq ma‘lum bir qisqa axborotni aniq va lo‘nda qabul qilinishiga yordam bersa, dialogik nutqdagi intonatsiya, his-hayajon kabi xususiyatlar ma‘lumotni hissiy qabul qilinishini yaxshilaydi. Polilogik nutq esa axborotni real hayotiy tarzda yetkazilishi uchun xizmat qiladi. Tarixiy evolyutsion taraqqiyotda insoniyat jamoaviy yashash orqali o‘zini himoyalab kelgan. Ya‘ni odamlarning nutqi, ovozi, shovqini — hayotiy reallikning aksidir. Bahs, munozara shaklidagi polilogik nutqning hayotiyligi ham uning ana shunday jonli jozibasini tashkil etadi. Kundalik hayotda nutq ko‘rinishlari, suhbatdoshlar o‘zgaradi. Bir nechta kommunikatsiya subyekti ishtirok etadigan, munozaraga boy bo‘lgan interaktiv teledasturlarda bahs, o‘yin shakllarini ko‘rish mumkin. Odatdagi suhbatda muloqot shakllari o‘zgarib turgani kabi interaktiv teledasturlarda nutq ko‘rinishlari almashib turadi. Monologdan dialogga, mavzu muhokamasiga kelganda esa polilogik nutqqa o‘tiladi. Polilogik nutqqa teletomoshabinning tabiiy fiziologik ehtiyoji mavjud. Shu bilan birga, u yoki bu nutq ko‘rinishlarining almashinib turishi axborotni yaxshi qabul qilinishi uchun xizmat qiladi. Aynan shu xususiyatdan kelib chiqib, “Yangi davr” informatsion dasturini ta‘sirchanligini oshirish uchun bitta boshlovchi o‘rniga ikkita boshlovchi faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Polilogik nutqda moderatorning vazifasi

Internetning masofalararo cheksizligi, vaqt o‘lchovida hozirjavoblighi nafaqat jurnalistika interaktivligiga, balki jurnalistika nazariyasiga ham evolyutsion o‘zgartirishlarni kiritdi. Interaktivlik o‘zaro ta‘sir qilish jarayonining real vaqtda sodir bo‘lishini nazarda tutadi. “Interaktivlik yozishma emas, dialogdir. O‘zaro ta‘sir ko‘rsatish bir makonda bo‘lishi shart emas, bir vaqtning o‘zida bo‘lishi lozim. Ya‘ni boshlovchi tinglovchi bilan jonli efirda telefon orqali muloqotga kirishishi, ularning ma‘lumot, savollarini qabul qilishi, ovoz berish jarayonlari yakuniga ko‘ra ularning qarashlarini bilib olishi mumkin” [Shopen 2002]. Shuning uchun teleradiojurnalistikadagi interaktivlikda jonli efir, to‘g‘ridan to‘g‘ri ulanishlar bo‘lgan dasturlarni interaktiv jurnalistika ko‘rinishlariga kiritish mumkin. Bunda barcha jarayonlar sahnalashtirilmagan, improvizatsiya holatida ro‘y beradi. Vaziyatlar kutilmagan, oldindan rejalashtirilmagan, hayotiy reallikka yaqinlashtirilgan bo‘ladi. Aynan, voqea-hodisalarni hayotiy reallikka yaqinlashtirishi bilan interaktiv jurnalistika auditoriyani o‘ziga jalb qiladi.

Interaktiv teledasturlarda polilogik nutq namoyon bo'lar ekan, televizion boshlovchi moderator sifatida kommunikatsiya jarayonlarning o'zaro bog'lovchisi, turli nutq ko'rinishlarini uyg'unlashtiruvchisi vazifasini o'taydi. Ko'rsatuvning kirish, xulosa qismlari boshlovchi yoki boshlovchilarning monologidan tashkil topadi. Bunda jurnalist ekran ortidagi teletomoshabinga yuzlanadi. Ko'rsatuv tarkibidagi lavhalarga navbat berilarkan, boshlovchi barchaning diqqat-e'tiborini monitor ekraniga yo'naltiradi, studiyaga taklif etilgan kommunikatsiya subyektlarining so'zlash navbatini hal qiladi. Shu bilan birga, moderator ziddiyatli vaziyatlarni hal qiluvchisi, auditoriyaning fikr-mulohazalarini studiyaga yetkazib beruvchi sifatida xizmatlari beqiyos. "Polilog vaziyatida boshlovchining vazifasi shundaki, u suhbat rivojini kuzatish va yo'naltirishdan tashqari, nutqiy buzilishlar vaziyati yuzaga kelmasligini tartibga solib turadi" [Bakiyeva 2019: 110]. Interaktiv teledastur fikrlar xilma-xilligi, respondentlar qarashlarining farqlanishi, ziddiyatli vaziyatlarning vujudga kelishi bilan xarakterlanadi. Moderator-boshlovchi vaziyatni mo'tadillashtiruvchi, holatni nazorat qiluvchi bo'lib xizmat qiladi.

Boshlovchining nutq uslubi ko'rsatuvning vizual imijiga mos bo'ladi. Uning ovozi, so'zlashuv temp va ritmi, intonatsiyasi dasturning yo'nalishi, mavzusi ochilishi uchun xizmat qiladi. Televizion boshlovchi o'ziga xos audiovizual imijiga ega shaxs sifatida dastur ta'sirchan va samarali chiqishiga xizmat qiladi. "Telenutqning individualizatsiyasi boshlovchi jurnalist, shoumenning individualligi bilan chambarchas bog'liq. U ovozning individual xarakteristikasi (tembr, tonning baland-pastligi, nutqning umumiy tonalligi) hisobiga paydo bo'ladi; uning vujudga kelishida mantiqiy va emfatik urg'udan (aksent ajralishining bevosita vositalaridan ham), psixologik pauza va nutqning boshqa prosodik vositalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega" [Bakiyeva 2019: 108]. Tandemdagi boshlovchilar dialogik nutqida esa bir-birini o'zaro to'ldirib turuvchi lingvistik mo'tadillikni kuzatish mumkin. Audiovizual xilma-xillikni beradigan erkak va ayol boshlovchilar nutqiy tandemida mavzuni turli rakurslardan yoritilishi uchun ikki xil qarash bir-birini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Teleboshlovchilarning nutqiy o'ziga xosligi loyihaning brendiga aylanadi. Moderatorlik jarayonidagi ularning qo'llagan iboralari mazkur dastur imiji uchun xizmat qiladi. Aksariyat teledastur boshlovchiligiga taniqli insonlarni jalb qilinishining sababi ham shunda. Efir brendiga aylanib ulgurgan mediashaxslarning tomoshabinni o'ziga jalb qilish imkoniyati ham ko'proq. Nutq madaniyatini egallagan aktyor yoki so'z ustalari uchun individual nutqiy o'ziga xoslikni yaratish oson kechadi. Nafaqat yurtimizda, balki rivojlangan davlatlar telejurnalistikasida bu tajriba keng qo'llaniladi. Jumladan, AQSH televideniyesida tungi interaktiv shoularni asosan komik aktyorlar olib borishadi. Chunki turli nutq ko'rinishlari mujassam bo'lgan loyihalarda kommunikatsiya jarayonini boshqarish uchun taniqli mediashaxs bo'lib shakllanish barobarida nutq madaniyatini mukammal egallash talab etiladi.

Ikki boshlovchining moderatorligini tahlil qilganda kommunikatsiya jarayonida ularning rollari turlicha bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Bunda boshlovchilarning nutqi o'zaro bir-birini to'ldirib kelishi mumkin. "Uchburchak", "50+50" shoularining boshlovchilari Nilufar Umirzoqova

hamda Nozima Vohidovalar bunga misol bo'ladi. Telejurnal janridagi "Assalom, O'zbekiston!", "Yangi davr" loyihalarida ham ikki nafar boshlovchining nutqi asosiy kommunikativ vazifani o'taydi. "Munosabat", "Xalqaro press klub" dasturlarida esa yetakchi jurnalistga uning yordamchisi ko'rsatuv olib borish jarayonida ko'maklashadi. "Xalqaro press klub" dasturida Sherzodxon Qudratxo'ja bilan Yelena Cho'yanovalarning moderator sifatida faoliyat olib borganlarini bunga misol qilish mumkin. Yetakchi boshlovchi dasturni asosiy mavzusini, uning yakuniy xulosasini ifodalasa, yordamchi boshlovchi respondentlarning o'zaro suhbatini shakllantirishda ko'maklashadi. Interaktiv televizion dasturlar asosan jonli efirda tayyorlanishini, unda turli nuqtayi nazarga ega bo'lgan kommunikantlar ishtirok etishini nazarda tutadigan bo'lsak, ikkita boshlovchining studiyada mavjudligi jurnalistning samarali faoliyati uchun zarurligini ko'rsatadi. Ijtimoiy, siyosiy yo'nalishdagi teledasturlarda asosiy boshlovchi uchun yordamchining faoliyati mavzuning har tomonlama ochilishiga xizmat qiladi. Dialogik yoki polilogik nutq namoyon bo'ladigan jonli efirdagi interaktiv teledasturlar asosan nutqiy improvizatsiya jarayonida paydo bo'ladi. Moderator boshlovchining nutqi efirda yaraladi. Jonli efirda hayotiy reallikka yaqinlashgan improvizatsiyaning mavjudligi tomoshabinni interaktiv teleko'rsatuvlarga jalb qiladi. Notiqlik mahorati moderatorning psixologik tayyorgarligini ham talab etadi.

Interaktiv teledasturlarda improvizatsiya jarayoni

Yozib olingandan keyin montaj qilinadigan an'anaviy usuldagi ko'rsatuvlarda matn monologik tarzda uzatiladi. Ya'ni suxandon yoki boshlovchi uni efirda o'qib beradi. Dialogik yoki polilogik nutq namoyon bo'ladigan jonli efirdagi interaktiv teledasturlar asosan nutqiy improvizatsiya jarayonida paydo bo'ladi. Bunda ko'rsatuvning mavzusi, yo'nalishi, janri o'zgarmaydi. Moderator boshlovchining nutqi avvaldan belgilanmagan ko'rinishda, efirni o'zida yaraladi. Vaziyatdan kelib chiqib, suhbatdoshlarga beriladigan savollar, muloqotning yo'nalishi ham shu paytda paydo bo'ladi. Dialogik yoki polilogik nutq namoyon bo'ladigan jonli efirdagi interaktiv teledasturlar asosan nutqiy improvizatsiya jarayonida paydo bo'ladi. Jonli efirda hayotiy reallikka yaqinlashgan improvizatsiyaning mavjudligi tomoshabinni interaktiv teleko'rsatuvlarga jalb qiladi. Jonli efirda hayotiy reallikka yaqinlashgan improvizatsiyaning mavjudligi tomoshabinni interaktiv teleko'rsatuvlarga jalb qiladi. Improvizatsiya jarayonidagi televizion nutq og'zaki nutqqa yaqin bo'lib, kundalik so'zlashuv uslubini eslatadi. Mutaxassislar jonli efirdagi improvizatsiya jarayonida hosil bo'lgan nutqni tasodifiy nutq deb ta'riflashadi va bu holatga ilmiy baho berishadi: "Tasodifiy nutq umumadabiy hamda yozma nutqning mutanosib namunalari asosida yaratiladi va og'zaki nutq paydo bo'lishining asosiy qonunlariga, gap hosil qilish qoidalariga rioya etiladi. Bu qonunlarga amal qilish og'zaki fikrning nutqiy segmentatsiyasiga olib keladi. Og'zaki nutqdagi gap va so'z birikmalari sintaktik qoidalar asosidagina emas, balki nutq hajmiga ko'ra kichik bo'lgan fikr qismlarining alohida shakllanishi va qabul qilinish prinsiplari asosida ham shakllanadi. Ular tuzilishiga ko'ra yozma nutqdagi

gap va so'z birikmalaridan ajralib turadi; ularda og'zaki nutq ishtirokchilari o'rtasidagi grammatik aloqalar ham zaruriy bo'lmaydi" [Bakiyeva 2019: 114]. Jonli efirda hayotiy reallik aks etishi bilan interaktiv teledasturlarda hujjatli publitsistik xususiyat ortadi. Avvaldan yozib berilgan matnni o'qib berishga nisbatan jonli efirda faoliyat ko'rsatuvchi jurnalist, sahnadagi teatr aktyori kabi yaratuvchanlik qobiliyatini namoyon qiladi. Ya'ni jonli efirdagi improvizatsiya jarayonida jurnalist shu paytning o'zida nutqini improvizatsiya qilib, qarashlarini ifodalaydi. Uning intonatsiyasi, ovoz temбри, ritm va ohangi shu paytning o'zida hosil bo'lib, fikr mazmunini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, tana harakati, yuz ko'rinish mimikasi ham ko'rsatuv mazmuniga mos tarzda paydo bo'ladi. Teatrda aktyor sahnada turib tomoshabinni ko'rib turadi, jonli efirdagi jurnalist kameraga qarab muxlisiga murojaat qiladi. Avvaldan yozib olingan ko'rsatuvlarda montaj jarayonida dasturga sayqal berish, ortiqcha joylarni olib tashlash imkoniyati mavjud bo'ladi. Jonli efirdagi improvizatsiya holatida shu vaqtning o'zida ko'rsatuv mazmuniy yaxlitlik hosil qilinishi kerak. Ya'ni jumlar, savollar, respondentlarning javoblari ko'rsatuvning mazmuniga xizmat qilishi lozim.

Yangiliklar dasturiga nisbatan interaktiv teledasturlarni jonli tarzda olib borilishining murakkabligi mavjud. Boshlovchi bir nechta kommunikantlarning o'zaro suhbatini tashkil qilish, bir-biriga qarama-qarshi fikrlovchilarning bahsini boshqarishi, muxlislarning fikrini efirda aks etishiga xizmat qilishi kerak. Teatr aktyorlarining nutqi ssenariyda aks etadi, spektakl paytida ularning ijrosigina improvizatsiya bo'ladi. Shuning uchun interaktiv teledasturlardagi jurnalistlarning improvizatsiya qilish qobiliyatini nihoyatda yuqori baholash kerak.

Efirdagi nutq muammolari

Ijtimoiy tarmoqlarda kechadigan muloqotlarda foydalanuvchilar tomonidan adabiy til me'yorlariga rioya qilmaslik, etika normalarining buzilish holatlari tabiiy holga aylangan. Polilogli nutqqa asoslangan interaktiv teledasturlar real hayotdagi muloqotga yaqinlashgani bois, ularda og'zaki nutq aks etadi. Mutaxassislar og'zaki nutqning ikki xil ko'rinishini ta'riflashadi. "Og'zaki nutq dastlab ikki tipga ajraladi: 1) oddiy so'zlashuv nutqi; 2) adabiy so'zlashuv nutqi" [Makarencov 2019: 33]. Og'zaki nutqning kundalik turmushdagi so'zlashuv bilan OAVda aks etadigan adabiy so'zlashuv nutqiy ko'rinishlari mavjud. Matn avvaldan tayyorlanib, suxandon uni efirda o'qib berganida nutqda to'liq adabiy til me'yorlariga rioya etilishi kuzatiladi. Shuning uchun mutaxassislar adabiy so'zlashuv nutq ko'rinishlari tavsifiga radio va televideniyaedagi lisoniy ko'rinishlarini kiritishadi: "Radio va televideniye nutq (tili). Bu, ko'rinishga radio va televideniye orqali adabiy tilda so'zlangan nutqlar kiradi. Radio va televideniye nutqi asosini diktorlar, radio va televideniye izohlovchilari nutqi tashkil qiladi. Radio va televideniye orqali adabiy tilda olib borilgan eshittirishlar, ko'rsatuvlar, suhbatlar tili ham radio va televideniyeining o'ziga xos talablariga bo'ysunadi va ba'zi o'ziga xos normativ tomonlarga ega" [Makarencov 2019: 34]. Ijtimoiy tarmoqlarda bo'lgani kabi interaktiv teledastur boshlovchilari OAV me'yoridagi adabiy

tildagi og‘zaki nutqda emas, balki oddiy so‘zlashuv nutqida efirni olib borishadi. Shuning uchun efirdagi ko‘rsatuvlar nutqida adabiy til me‘yorlarining buzilishi kuzatiladi.

Mutaxassislar adabiy tilda yozishga nisbatan adabiy tilda so‘zlashishning bir qancha murakkabliklari mavjudligini ta’kidlashadi: “Ammo adabiy tilda so‘zlash adabiy tilda yozishga nisbatan ancha qiyinchilik bilan erishiladigan jarayondir. Buning bir qator sabablari bor: 1) og‘zaki nutqda shevachilikning ta’siri kuchli bo‘ladi; 2) og‘zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o‘ylab ish tutish imkoni kam bo‘ladi. Chunki og‘zaki nutq yozma nutqdan tezkor (avtomatik) jarayon ekani bilan farqlanadi; 3) og‘zaki nutqning o‘ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud. Chunonchi, gap bo‘laklarining tushib qolishi, qisqarib ketishi, o‘rin almashishi, aksincha, keraksiz unsurlarning, takrorlarning bo‘lishi va b; 4) og‘zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari muhim rol o‘ynaydi;” [Makarenkov 2019: 34]. Ya’ni efir olib borayotgan, respondentlar bilan muloqot qilayotgan boshlovchi hamda suhbatdoshlar uchun adabiy so‘zlashuv nutqiga rioya etish uchun tajriba va mahorat talab etiladi. Notiqlik mahorati moderatorning psixologik tayyorgarligini talab etadi. Bunda u kundalik so‘zlashuv nutqidagi shevalardan xalos bo‘lish, avtomatik tarzda og‘zaki nutqda adabiy til me‘yorlariga rioya qila olish qobiliyatiga ega bo‘lish, og‘zaki nutqdagi grammatik gap tuzilishini adabiy til me‘yorlariga moslashtira olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim. Interaktiv teledasturlar jonli efirda asosan improvizatsiya jarayonida tashkil bo‘lishini nazarda tutadigan bo‘lsak, adabiy nutq uslubiga mos ravishda efir olib borish uchun notiqlik mahorati zarur. Ya’ni monologik tarzda efirni olib borishda adabiy til me‘yorlariga rioya qilishga nisbatan, polilogik shakldagi interaktiv teledasturlar moderatorligi uchun notiqlik san’atidan unumli foydalanish ko‘nikmalarini egallaganlik talab etilishini ta’kidlash kerak.

Xususiyl telekanal boshlovchilari mavzu va yo‘nalish tanlashda erkinlikni til me‘yorlarini ham istagancha o‘zgartirish mumkin deb qabul qilishmoqda. Mavzu uchun kundalik hayotdagi ikki inson o‘rtasidagi ziddiyatlar tanlanar ekan, bu dasturlar uchun muloqot shakli ham oddiy turmushdagi og‘zaki nutq shaklida bo‘lishi tabiiy holdir. Davlat telekanallardagi ijtimoiy, siyosiy yo‘nalishdagi interaktiv dasturlar mavzusi va yo‘nalishi rasmiy bo‘lgani uchun bu ko‘rsatuvlarning til uslubi ham adabiy tilning rasmiy, publitsistik uslubiga mos ekanligi bilan ajralib turadi. Ya’ni teleko‘rsatuvlarning janr, yo‘nalish, mavzusi bevosita loyihaning til uslubi, nutq ko‘rinishiga ta’sir qilishini ta’kidlash kerak. Masalan, ayollar, uy bekalari uchun mo‘ljallangan teledasturlarning muloqot uslubi ayollar o‘rtasidagi muloqot shakliga yaqinlashtirilgani bilan farqlanadi. Hozirda ijtimoiy tarmoqlardagi interaktiv jarayonlarda adabiy til hamda odob-axloq me‘yorlariga rioya etilmasligi odatiy holga aylangan. Ko‘proq auditoriyani o‘ziga jalb qilishga qaratilgan interaktiv teledasturlar ham oddiy kundalik turmushdagi muloqot uslubini takrorlashini ta’kidlash kerak. Bir qarashda mavzu, yo‘nalish tomoshabinga moslashgan ekan, til uslubini ham muxlisning hayotiga yanada yaqinlashtirishning salbiy jihatlari ko‘rinmaydi. Ammo fuqarolik jurnalistikasi ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlardan farqli o‘laroq OAV, jumladan, televideniyeining, ma’rifiy xususiyati yuqori

ekanligini ta'kidlash kerak. Tomoshabinni jalb qiladigan reytingi yuqori bo'lgan teleko'rsatuvlar til uslubi bilan minglab muxlislarning nutq madaniyatini shakllantirishi mumkin. So'nggi yillarda xususiy telekananallardagi nutqiy nuqsonlar odatiy me'yorga kirib borgan uchun katta hajmdagi auditoriyaning nutqiy saviyasi, umumiy savodxonligi tushish ehtimolini oshirmoqda. Chunki OAV orqali namoyish qilinadigan audiovizual material madaniyat mezonini sifatida qabul qilinadi. Mutaxassislar til me'yorlarining o'zgarishini tabiiy jarayon deb ta'riflashadi. "Demak, norma deganda til unsurlarining xalq o'rtasida ko'pchilikka ma'qul bo'lgan variantini qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham norma tushunchasi til qurilishi, umuman til taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lib, tilda turg'unlik kasb etadi va uzoq muddat yashaydi. Ammo bu norma o'zgarish hodisalar degan gap emas. Davr o'zgarishi bilan odamlarning bilimi, dunyoqarashi, hayotga bo'lgan talabi o'zgarishi bilan norma ham o'zgarib borishi mumkin" [Makarenkov 2019: 36].

Kundalik hayotda nutqiy me'yorlarning o'zgarishi odatiy hol sifatida qabul qilinishi tufayli teleefirdagi adabiy tilga rioya etilmaslik hozirgi kun me'yori deb qabul qilinishi mumkin. Buning natijasida so'zlashuv uslubini nutq me'yoridek o'zlashtirilish ehtimoli katta. Oqibatda auditoriyaning umumiy savodxonligi, saviyasi tushishi, adabiy til me'yorlari unutilishi mumkin. Interaktiv teleko'rsatuvlarning so'zlashuv uslubida olib borilishi auditoriyaning lisoniy tarbiyasiga ta'sir qilishi mumkin, bu esa mazkur ko'rsatuvlarning salbiy xususiyati ekanligini ta'kidlash kerak. Shevada so'zlashish, respondentlarning hurmatsizlik bilan muloqot qilishlari, baqirib gapirish, jargon so'zlardan foydalanish kabi nutq me'yorlarning buzilishi interaktiv teledasturlarning lisoniy muammolarini namoyon qiladi. Teleko'rsatuv reytingini oshirish uchun sensatsion, shov-shuvli dasturlarni tayyorlayotgan juralistlar efirda ham kundalik so'zlashuv nutqini qo'llab, auditoriyaning lisoniy tarbiyasiga ta'sir qilmoqda.

Dialogda tinglashning ahamiyati

Interaktiv teleko'rsatuvlarda fikr, g'oya, qarashlar ifodalanadi. Muammo turli rakursdan tahlil qilinadi. Muloqot shaklidagi nutq turli ijtimoiy qatlamlarga mansub bo'lgan kommunikatsiya subyektlarining o'zaro fikr almashinuvini shakllantiradi. Monologik nutq shaklidagi an'anaviy jurnalistikada mavjud bo'lmagan dialogik janrdagi interaktiv teleko'rsatuvlarda bir-biriga qarshi bo'lgan fikrlar paydo bo'ladi. Masala yechimi turli xil qarashlarni tinglash, botiniy fikrlarni oshkora namoyon bo'lishidan kelib chiqadi. Monologik axborot uzatishda nutqiy muloqot bo'lmagani uchun passiv qabul qiluvchi bo'lgan auditoriyaning fikri namoyon bo'lmaydi. Bir taraf boshqa tarafni fikrini tinglashi, boshqacha qarashlar borligini qabul qilishida muhim psixologik, ijtimoiy jarayon vujudga keladi. Qarshi tarafni tinglash, boshqalarning o'z haqiqatlari borligini anglash jarayoni sodir bo'ladi. Jamiyatdagi taraqqiyot — muxolif e'tiqod mavjudligini qabul qilishdan boshlanadi. Bunda muloqot turli xil qutblarni birlashtiruvchi nuqtaga aylanadi. Turli xil manfaatlar, qarashlar bir-biriga yaqinlashadi, mavzu va masalaning mo'tadil, xolis yechimiga kelishiladi. Auditoriyaga xolis yechimni qabul qilishi uchun suhbatga kirishish imkoniyati yaratiladi. Nutq — fikr ifodalash vositasiga aylanadi.

Monologik nutqqa asoslangan an'anaviy jurnalistikada dialog, kompromis mavjud bo'lmagani uchun uzoq yillar davomida odamlar media orqali suhbatlashish imkoniyatidan mahrum bo'lishgan. Ijtimoiy tarmoqlar hamda interaktiv teleko'rsatuvlarda fikrni ifodalash imkoniyatiga ko'pchilik tayyor emasligi u yerdagi nutqiy muvozanatning buzilishida ko'rinadi. Asosan boshqacha qarashlarni qabul qilmaslik, o'zgacha g'oya, e'tiqodlarni tan olmaslik, o'zgalarning fikrlarini hurmat qilmaslik natijasida dialog paytida o'zaro bir-birini tinglamaslik holatlari, kommunikantlarning bir vaqtning o'zida gapirishlari, nutq madaniyatiga rioya qilmasligi vujudga keladi. Xususiy telekanallar tomoshabin diqqatini jalb qilish maqsadida shov-shuv hosil qilib, ziddiyatli vaziyatni kuchaytirishga intilishadi. Tok-shoulardagi qarama-qarshi fikr bildirish haqiqatga intilish, obyektivlikni izlash bo'lmay, tinglash madaniyatining mavjud emasligidan hosil bo'ladi.

Monologik nutqda auditoriya tinglaydi, axborotni qabul qiladi. Dialogda fikr bildirish bilan birga, qarshi tarafni tinglay bilish ham nutq madaniyatining asosidir. Chunki boshqa fikrni, o'zgacha qarashlarni qabul qilish suhbatdoshni tinglashdan boshlanadi. Dialog paytida mo'tadil suhbat qurish uchun o'z vaqtida sukut saqlay bilish muhim. Intervyu paytida jurnalist savol beruvchi, respondent javob beruvchi bo'ladi. Polilogik nutqqa asoslangan interaktiv teleko'rsatuvlarda bir nechta kommunikantlarning nutqlari mujassam bo'lgani uchun efirdagi nutqiy madaniyat uchun o'zaro hurmatni saqlay bilish muhim. Jamiyatdagi taraqqiyot turli xil qarashlarning mavjudligi, turli fikrlarning uyg'unligi bilan kechadi. Ular bir-birini inkor qilmay, o'zaro to'ldiradi. Boshqacha qarashlarni qabul qilish esa ularni tinglashdan boshlanadi. Suhbatdoshni tinglash madaniyati o'zining e'tiqodidan voz kechish bo'lmay, o'zga odamning qarashlarini qabul qilishga asoslanadi. Turli xil qarashlarning bitta platformada namoyon bo'lishiga saylovoldi tok-shoularni misol qilish mumkin. Tomoshabin bir vaqtning o'zida bir nechta raqiblarning nutqini tinglashi, ularning qarashlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda raqib tarafning suhbat o'zaro hurmat va madaniyatga asoslanishi talab etiladi. Nutqni anglash uchun kimdir so'zlasa, boshqa taraf uni tinglashi kerak. Bunda suhbatdoshni, respondentni tinglash dialogni tashkil qilishning asoslaridan biridir. Zamonaviy mediada kommunikatsiya subyektlarining o'zaro hurmat qilishni o'rganishi dolzarb muammodir. Interaktiv telejurnalistika qatori ijtimoiy tarmoqlar uchun ham bu muammo nihoyatda aktualdir.

Efirda neyrolingvistik dasturlashni qo'llash

Albatta, teletomoshabinni o'ziga jalb qilish, nutqni ta'sirchan qilishning professional usullari mavjud. Jahon tajribasida buning uchun neyrolingvistik dasturlash usullari keng qo'llaniladi. "Ko'rish, eshitish, teginish, hid va ta'm bilish kabi sezgi organlari orqali inson asab tizimi hamda miyasi tashqi dunyo haqida ma'lumot oladi. Neyrolingvistik dasturlashda axborotni qabul qilish va qayta ishlash tizimlari reprezentativ tizim deb ataladi. Mazkur dasturlash inson fikrlashining muhim tarkibiy qismidir" [Ismailova 2022: 84]. Neyrolingvistik dasturlash tizimi odamlarning psixo-fiziologik axborot qabul qilish xususiyatlarini

o'rganadi. Mutaxassislar ma'lumotni taqdim etishning samarali usullarini ishlab chiqishda axborotni auditoriyaga ta'sirchan shaklda yetib kelishi uchun dasturlash usullarini o'zlashtirishlari kerak.

Reklama tayyorlash hamda siyosiy PR sohalarida ulardan foydalanish yaxshi natija berishi shubhasiz. Psixolog mutaxassislar odamlarni ko'rish, tinglash, his qilish kabi axborotni qabul qilish qobiliyatiga ko'ra neyrolingvistik xususiyatlarni tasniflaydilar. Aksariyat vizual, audial, kinestetik shaklda axborotni qabul qiluvchilarda bu qobiliyatlarning uyg'unligi uchraydi. "Odatda bu qobiliyatlarning biri yetakchilik qiladi. Vizual "Men buni shunday ko'raman", audial "men buni shunday deb aytaman", kinestetik esa "men buni shundayligini his qilaman" deb so'z yuritadi" [Mukazhanova, n.d.]. Jurnalistlar material ta'sirchan bo'lishida axborotni qabul qilishning bu kabi xususiyatlari borligini hisobga olib faoliyat yuritishlari mumkin. Masalan, ma'lumotlarni ta'sirchan yetkazib berish uchun vizuallar uchun axborotni infografika shaklida uzatish, audiallarga so'z boyligiga ega bo'lish, kinestetiklar uchun hissiyotlarga ta'sir etish usullari mavjud. Shu bilan birga, muallifning o'zida ham mazkur qobiliyatlarning mavjudligini, ular ijod jarayonida namoyon bo'lishini hisobga olish kerak.

"Matbuot — o'qish degani. U jamiyatda o'qish hissini ham, umumiy nutqiy madaniyatni ham tarbiyalaydi. Radio va televideniye o'qishga uncha moyil bo'lmagan toifalar uchun vaqtni zavqli o'tkazish vositasi ekanligini ham esda tutish kerak" [Mo'minov 2019: 55]. Ya'ni teleradiojurnalistikada axborotni audial hamda vizual shaklda qabul qilinishi sohaning rekreativ xususiyatini oshiradi. Aksariyat telejurnalistlar axborotni vizual qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishadi. Zamonaviy axborot vositalari keng taraqqiy etgan davrda bunday insonlar aksariyatni tashkil etadi. Tasvirga olish uskunalarining ommalashgani sari vizual axborot tarqatish ko'payib, har bir individuumning voqea-hodisalarni tasvirlash imkoniyati ortdi. Natijada axboriy jamiyatda ko'pchilikning axborotni vizual shaklda qabul qilish qobiliyati rivojlandi. Vizualarning ko'paygani aholining umumiy kitobxonlik darajasi tushgani, bosma nashrlar o'quvchilari kamayganida ham namoyon bo'lmoqda. Jurnalistlar material ta'sirchanligini oshirish uchun axborot vizualizatsiyasiga katta ahamiyat berib, informatsiyani tasvir bilan dalillashmoqda.

Natijalar va muhokamalar

Media axborotni samaradorligini oshirishda, jumladan, interaktiv teleko'rsatuvlarning ta'sirchanligida auditoriyaning axborotni qabul qilish imkoniyatlarini o'zlashtirganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Vizual axborot qabul qiluvchilar ko'pchilikni tashkil qilsa-da, bunda so'zni to'g'ri qo'llash, nutq madaniyatining alohida o'rni bor. Vizualizatsiyaga qaratilayotgan e'tibor bilan bir qatorda dasturning lingvistik o'ziga xosligi muhim ahamiyat kasb etishini hisobga olish zarur. Til — har bir millatning milliy o'ziga xosligini namoyon etuvchi xususiyatga ega ekan, telejurnalistlar nutqining savodli bo'lishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ayniqsa, improvizatsiya jarayonida interaktiv teleko'rsatuvni tayyorlashda jurnalistning so'z boyligi, notiqlik mahorati namoyon bo'ladi. Jonli efirdagi kommunikatsiya jarayonida axborotni so'z

bilan ifodalashda ham u yoki bu ta'sirchan so'zlarni tanlay olishi muhimdir. Shunday ekan, ijodkorlar auditoriya vakilining qaysi bir neyrolingvistik guruhiga mansubligini aniqlab, muloqot shaklini tanlashlari kerak. Mutaxassislar fikriga ko'ra: "Vizuallar "Men sizning so'zlaringizda haqiqatni ko'ryapman, o'zim uchun yanada yorqinroq tasavvur qilyapman, nuqtayi nazarangizni ko'ryapman" kabi so'zlarni tanlashadi. Audiollar "haqiqatga o'xshayapti, meni tingla, shunday eshitildi" kabi iboralardan foydalanishadi. Kinestetiklar esa: "Siz haqligingizni his qilyapman, so'zlaringizdan shu narsa sezilyapti, og'ir, yengil, sovuq, achchiq" kabi so'z va iboralarni nutqlarida qo'llashadi" [Makarenkov 2019: 89]. Jurnalistlar kommunikatsiya jarayonida respondentning qobiliyatlarini o'zi uchun aniqlab, unga mos bo'lgan so'z va iboralarni nutqida qo'llashi kerak. Muallif taqdim etayotgan materialining ma'lumotlarini vizuallar uchun tasvirlab berish, audiollar uchun eshitishli qilishi va kinestetiklar uchun hissiyotli tarzda yetib borishiga intiladi. Bu uch unsum o'z nutqida jamlay olganlarning faoliyati samarali bo'lishi shubhasiz. Ayniqsa, intervyu olishda, suhbat qurishda respondentning qaysi bir qobiliyati ustunlik qilayotganligini aniqlab, unga mos tarzda kommunikatsiyani o'rnatish olish boshlovchining notiqlik san'atini oshiradi. Shu o'rinda televizion jurnalistikada audiollar qatori vizual va kinestetiklarga ta'sir qiladigan nutqni shakllantirish imkoniyati mavjudligini ta'kidlash kerak. Audiollar uchun adabiy til me'yorlariga rioya qilingan og'zaki nutqda muloqot shakllantiriladi, vizuallarga xatti-harakatlar, mimika, imij orqali ta'sir qilinsa, kinestetiklarga pauza, ritm, intonatsiya kabi unsurlardan keng foydalanish yaxshi samara beradi. Mazkur nutq xususiyatlarining o'ziga xosligidan o'rinli foydalanilmasa, loyiha samaradorligi tushib ketishi mumkin. Masalan, "ZO'R TV"da efirga uzatilgan "O'g'irlangan niqob" tok-shousida sahna dekoratsiyasi, boshlovchi va ishtirokchilar tashqi ko'rinishi, imiji ustida mahoratli mutaxassislar ishlagan. Ya'ni vizual tarzda dastur ta'sirchan chiqishiga katta ahamiyat berilgan. Ammo hakamlar va boshlovchining nutqiy savodxonligi talab darajasida emasligi ko'rsatuv saviyasini tushirgan. Boshlovchining baqirib, baland ovozda gapirishini kinestetik xatolik sifatida baholash mumkin. Mazkur misol orqali teleloyihalarda neyrolingvistik dasturlashning barcha xususiyatlari hisobga olinishi muhimligi namoyon bo'ladi. Ya'ni televizion dasturda ham audiollar, ham vizuallar, ham kinestetiklar uchun ta'sir vositalarini hisobga olinishi zarurligi ko'rinadi. Televizion loyiha bo'lgani uchun faqat vizualizatsiyasini hisobga olib, nutq madaniyatiga rioya qilmaslik ko'rsatuvning umumiy saviyasini tushirishi mumkinligini ta'kidlash kerak. Tijoriy telekanallar faoliyatida televizion rejissura ustida ishlanib, mumtoz telejurnalistika tamoyillariga rioya qilinmaslik ko'zga tashlanadi. Nodavlat OAV asosan rekreativ yo'nalishda faoliyat ko'rsatadi, auditoriyaning hissiyotlariga ta'sir qilgan holda ko'rsatuv vizualizatsiyasiga e'tibor qaratadi: sahna dekoratsiyasi, taniqli shaxslarning boshlovchilikka jalb qilinishi, loyihaning umumiy dinamikasini ushlanishi va h.k. Kasbiy malaka, amaliy tajriba talab etiladigan jurnalist mahorat masalasiga xususiy telekanallarda katta ahamiyat qaratilmaydi. Natijada yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, vizual ko'rishli bo'lgan dasturlarning umumiy saviyasi talab darajasida bo'lmaydi. Tijoriy maqsadda faoliyat

ko'rsatadigan xususiy telekanallar faoliyati auditoriyaning umumiy saviyasiga salbiy ta'sir qilishi, aholining nutqiy savodxonligini tushirishi mazkur muammoning ijtimoiy ahamiyatini namoyon qiladi. Davlat telekanallari asosan davlat siyosatini targ'ib qilgani uchun ularda g'oya, siyosiy ideologiya ustunlik qilib, vizualizatsiyaga emas, nutq orqali beriladigan axborotga katta ahamiyat beriladi. Bunda loyihalar saviyasi yuqori bo'lsa ham, vizual shakli ishlab chiqilmagani uchun tomoshabinni o'ziga jalb qilish xususiyati yetarli bo'lmaydi. Tasniflanadigan bo'lsa, nodavlat telekanallar asosan vizual va kinestetiklarga ma'qul keladigan mahsulot ishlab chiqarishsa, davlat telekanallari ko'rsatuvlari audial tarzda axborot qabul qiluvchilarga mo'ljallanganligi diqqatni tortadi. Misol tarzida, "O'zbekiston" telekanalida efirga chiqadigan "Munosabat" ko'rsatuvi bir paytning o'zida radio orqali ham efirga ketganligini ko'rsatish mumkin. Ya'ni ko'rsatuv asosan nutqiy muloqotga asoslanganligi uni audial tarzda ham tinglash imkoniyatini bergan. Demak, davlat telekanallarida tayyorlanadigan interaktiv dasturlarning reytingini oshirish uchun ularning vizualizatsiyasiga, rejissurasiga katta ahamiyat berilishi tavsiya etiladi. Xususiy telekanallarda efirga ketadigan teledasturlarda mazmun hamda nutqiy savodxonlik masalalarini hal etish zarur. Nutq ta'sirchanligini oshirishda esa neyrolingvistik dasturlash usullaridan foydalanish telejurnalist mahoratini yanada oshiradi. Bunday dasturlash usulining samarasi haqida so'z ketganda, uning salbiy xususiyati mavjudligini ham ta'kidlash o'rinli. Neyrolingvistik dasturlash orqali tomoshabinni, auditoriyani manipulyatsiya qilish imkoniyati paydo bo'lishi mumkin. Propagandaga yoki marketing uchun zarur bo'lgan reklamalarni ishlab chiqarishda neyrolingvistik dasturlashdan unumli foydalaniladi. Mazkur holatda dasturlash tizimi auditoriya manfaati, jurnalistika samaradorligi uchun emas, balki shaxsiy yoki iqtisodiy manfaat uchun xizmat qiladi. "Zamonaviy jamiyatda keng qo'llaniladigan neyrolingvistik dasturlash insonning o'ziga xos fikrlashini ma'lum darajada uni manipulyatsiyaga ta'sirchan bo'lishiga tayanadi. Buning uchun subyekt oldiga aniq maqsad qo'yishi va undan kelib chiqqan holda obyekt ongiga ta'sir qilish ketma-ketligini yaratishi kerak. XXI asrda har bir inson dasturlash obyekti bo'lishi (ya'ni kompyuter kabi uni ma'lum bir harakatlarga "dasturlab qo'yish") mumkin" [Do'stmuhammad 2013: 65]. Bu usuldan davlat telekanallari hamda tijoriy telekanallarda foydalanish auditoriyadan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish uchun zamin hozirlab, interaktiv telejurnalistikaning ijtimoiy xususiyatlari kimnidir manfaatlariga xizmat qilishiga olib keladi. Efirdagi erkin muloqot shaklidagi teledasturlar jamiyat demokratlashuvi, so'z erkinligining ta'minlanishi, ko'p fikrlilik kabi ijobiy xususiyatlarga xizmat qilmay, manipulyatsiya, propaganda, feyk axborotning tarqalishi kabi holatlar vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Buning yechimi sifatida ijtimoiy televideniye faoliyatini yo'lga qo'yish, jurnalist mas'uliyatini oshirish va eng muhimi sifatli jurnalistikani rivojlantirish zarurligini ko'rsatish mumkin. Sifatli jurnalistikada esa lingvistik masalalar birlamchi ahamiyatga egaligi zamonaviy media olamda o'z tasdig'ini topmoqda. Chunki: "Jurnalistning nutqiy faoliyati mohiyat e'tibori bilan kishilar xatti-harakatini, fe'l-atvorini, yurish-turishini, tafakkur tajrijini boshqarishdan, jamiyat faoliyatini muayyan maqsadga yo'naltirish va bu maqsadni maqbul va

mukammal tarzda faol amalga oshirishdan iborat... Jurnalistning nutqiy faoliyati jurnalist ixtisosligi mohiyatiga dahldor eng faol va eng samarador ijtimoiy mafkuraviy nutq(matn)ni yaratadi va qaror toptiradi” [Mo‘minov 2019: 15].

Xulosa

Интерактив телеko‘rsatuvlarda monologik, dialogik hamda polilogik nutq ko‘rinishlari mavjud bo‘lib, nutqiy xilma-xillik interaktiv dasturlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Unda televizion boshlovchi moderator sifatida jonli efirda nutqiy improvizatsiya qilib, kommunikatsiya jarayonlarini o‘zaro bog‘lovchi, turli nutq ko‘rinishlarini uyg‘unlashtiruvchi, ziddiyatli vaziyatlarni hal qiluvchi, auditoriyaning fikr-mulohazalarini studiyaga yetkazib beruvchi sifatida xizmat qiladi.

Axborot bilan faoliyat ko‘rsatuvchi mutaxassislar neyrolingvistik dasturlash tizimi nazariyasiga ko‘ra, ma‘lumotni taqdim etish, tayyorlashning eng samarali usullarini ishlab chiqishni bilishlari, axborot auditoriyaga ta’sirchan shaklda yetib kelishi uchun ulardan unumli foydalana olishi kerak. Yurtimizda nodavlat telekanallar asosan vizual va kinestetiklarga ma’qul keladigan mahsulot ishlab chiqarishsa, davlat telekanallari ko‘rsatuvlari audial tarzda axborot qabul qiluvchilarga mo‘ljallangan. Mazkur dasturlash tizimidan davlat yoki tijoriy telekanallarda foydalanishining salbiy oqibatini oldini olishda ijtimoiy televideniye faoliyatini yo‘lga qo‘yish, sifatli jurnalistikani rivojlantirish zarurdir.

Интерактив тележурналистика kommunikatsiya, o‘zaro ta’sirlanishga asoslangan ekan, teledastur davomidagi muloqot jamiyatdagi jarayonlarning aks etishi bilan xarakterlanadi. Boshqa tarafni fikrini tinglash, o‘zgacha qarashlar borligini qabul qilishida muhim psixologik, ijtimoiy jarayon vujudga kelib, qarshi tarafni tinglash, anglash jarayoni sodir bo‘ladi. Jamiyatdagi taraqqiyot — muxolif e’tiqod mavjudligini qabul qilishdan boshlanadi. O‘zgacha qarashlarni qabul qilmaslik, birovlarining g‘oya, e’tiqodlarni tan olmaslik, boshqalarning fikrlarini hurmat qilmaslik natijasida dialog paytida o‘zaro bir-birini tinglamaslik holatlari, kommunikantlarning bir vaqtning o‘zida gapirishlari, nutq madaniyatiga rioya qilmasligi vujudga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Бакиева Г.Х, Тешабаева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тили. — Т.: Ўзкитобсавдо нашриёт, 2019. — 181 б.
- Дўстмуҳаммад Х. Ахборот – мўъжиза, жозиба, фалсафа. — Т.: Янги аср авлоди, 2013. — 320 б.
- Мўминов Ф., Тошпўлатова Н. Журналистика социологияси ва психологияси. Ж.10. — Т.: Ўзбекистон, 2019. — 296 б.
- Исмаилова К. Радиовещание Узбекистана в условиях демократизации: тенденции, проблемы, перспективы. — Т.: ТА’ЛIM MEDIA, 2022. — 196 с.
- Макаренков Е. В., Дурнева М. А. Анализ технологий нейролингвистического программирования как инструмента

- политического противоборства // Вест. Челябинс. гос. универ. — 2019. — №12 (434), вып. 54. — С. 89–94.
- Мукажанова Ф. Интеракционизм в социальной психологии. Электронный ресурс: <https://4brain.ru/blog/interakcionizm/>
- Муратова Н.Ф. Мультимедиа журналистики: халқаро ва миллий тажриба. Фил. фан. док. дисс. автореф. — Т.: Академия ноширлик маркази, 2023. — 72 б.
- Ортиқова Ю. Интерактив журналистика. — Т.: Мумтоз сўз, 2011. — 54 б.
- Потапова К.И. У истоков символического интеракционизма: социальная психология Дж.Г. Мида // Современные исследования социальных проблем. — 2016. — №4-1 (28). — С. 77–88.
- Шопен Н. Интерактивность – это пульс жизни // RELGA. — 15.03.2002. — №4. Электронный ресурс: <https://relga.ru/articles/168/>

References

- Bakiyeva, G., Teshabayeva, D. (2019). Ommaviy axborot vositalari tili (Language of mass media), Tashkent, Uzkitobsavdo. (In Uzb.)
- Dustmuhammad, Kh. (2013). Akhborot – mojiza, joziba, falsafa (Information – miracle, attraction, philosophy), Tashkent, Yangi Asr Avlodi. (In Uzb.)
- Mo‘minov, F., Toshpo‘latova, N. (2019). Jurnalistika sotsiologiyasi va psixologiyasi (Sociology and psychology of journalism), Tashkent, O‘zbekiston NMIU. (In Uzb.)
- Ismailova K. (2022). Radioveshchanie Uzbekistana v usloviyakh demokratizatsii (Broadcasting in Uzbekistan in the conditions of democratization), Tashkent, ta’lim media. (In Rus.)
- Makarencov, E. V., Durneva, M. A. (2019). Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta, No. 12 (434), 89–94. (In Rus.)
- Mukazhanova, F. (n.d.). Interaktsionizm v sotsial'noy psikhologii, available at: <https://4brain.ru/blog/interaktsionizm/>. (In Rus.)
- Muratova, N. F. (2023). Multimedia jurnalistikasi: xalqaro va milliy tajriba (Multimedia journalism: international and national experience), Tashkent, Akademiya Noshirlik Markazi. (In Uzb.)
- Ortiqova, Y. (2011). Interaktiv jurnalistika (Interactive journalism), Tashkent, Mumtoz So‘z. (In Uzb.)
- Potapova, K. I. (2016). Sovremennye issledovaniya sotsial'nykh problem, No. 4–1(28), 77–88. (In Rus.)
- Shopen, N. (2002). RELGA, No. 4, available at: <https://relga.ru/articles/168/> (In Rus.)